



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2026-yil 5-iyun, № 114 (9285)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



GONKONG BILAN O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA'KIDLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Syangan (Gonkong) maxsus ma'muriy hududi Administratsiyasi rahbari Li Szyachao boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Muloqot avvalida Li Szyachao davlatimiz rahbariga Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szingpinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. Uchrashuvda O'zbekiston — Xitoy hamkorligini, shu jumladan, Gonkong

bilan hududlar almashinuvlar va amaliy hamkorlikni kengaytirish orqali yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. Suhbat chog'ida so'nggi yillarda O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi do'stlik va yangi davrdagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari misli

ko'rilmagan darajaga ko'tarilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlar izchil amalga oshirilmoqda. May oyida Pekin shahrida Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va Sian shahrida uchinchi Hududlararo forum muvaffaqiyatli

o'tkazildi, Gonkongda iqtisodiy forum va sanoat ko'rgazmasi bo'lib o'tdi, O'zbekiston savdo uyi ochildi.

O'zbekiston hududlarining Gonkong bilan iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish uchun mavjud salohiyatdan samarali foydalanish muhimligiga alohida e'tibor qaratildi. Toshkent shahriga Gonkong ishbilardon doiralari vakillaridan iborat katta delegatsiya tashrif buyurgani ushbu yo'nalishdagi sheriklikni yanada rivojlantirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini joriy etish, ta'lim, turizm va ishbilardonlik almashinuvlarini rivojlantirish hamda to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar va fuqarolarga konsullik xizmatlari ko'rsatishni yo'lga qo'yishni nazarda tutuvchi kompleks hamkorlik dasturini qabul qilish muhimligi ta'kidlandi.

"Yashil" energetika, qishloq xo'jaligi, biotexnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, fintex, innovatsion startaplar, sun'iy intellekt va boshqalar ustuvor sohalar sifatida qayd etildi.

Hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qo'shma "Yo'l xaritasi"ni qabul qilish, shuningdek, ishbilardonlar kengashini tashkil etish hamda yaqin fursatda Gonkong bilan ikki tomonlama asosda vizasiz tartibni joriy etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTONDA AESNING BIRINCHI ENERGIYA BLOKI QURILISHIGA START BERILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 4-iyun kuni amaliy tashrif bilan Sankt-Peterburg shahriga keldi.

"Pulkovo" xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o'rinbosari Denis Manturov, shahar gubernatori Aleksandr Beglov hamda boshqa rasmiylar kutib oldi.

Sankt-Peterburg shahriga amaliy tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada kengaytirish hamda mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik jadal rivojlanayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi 20 foizga oshdi.

Sanoat, energetika, metallurgiya, transport, kimyo sanoati va iqtisodiyotning boshqa ustuvor tarmoqlarida yirik loyihalarni amalga oshirish davom etmoqda.

Tovar ayirboshlashdagi joriy sur'atlarni saqlab qolish, kooperatsiya loyihalarini jadallashirish hamda hududlar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Faol madaniy-gumanitar almashinuvlarni yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu kunlarda Mariinskiy teatrida Georg Fridrix Gendelning "Tamerlano" operasining premyerasi bo'lib o'tgani hamda "Ermitaj" davlat muzeyida O'zbekiston amaliy san'ati ko'rgazmasi ochildi.

Yetakchilar bo'lajak tadbirlar rejasini ham muhokama qildilar. Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin O'zbekistonda integratsiyalashgan atom elektr stansiyasining birinchi energiya

blokini qurish ishlariga start berildi.

Marosimda teleko'prik orqali Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA) bosh direktori Rafael Grossi ham ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari Vladimir Putin va Rafael Grossiga ushbu loyihaning ro'yobga chiqarilishini shaxsan qo'llab-quvvatlaganlari va ko'rsatilgan e'tibor uchun minnatdorlik bildirdi. Mamlakatimizda birinchi atom elektr stansiyasini barpo etishda ishtirok etayotgan O'zbekiston va Rossiya mutaxassislariga birgalikdagi sa'y-harakatlar va yuksak professionallik uchun alohida tashakkur aytili.

Mazkur loyihaning amalga oshirilishi O'zbekistonning texnologik, industrial va ilmiy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berib, yangi tarmoq — atom energetikasini rivojlantirish uchun asos yaratishi qayd etildi. Loyiha kichik modulli atom generatsiyasi hamda yirik hajmli energetika sohasidagi eng so'nggi yutuqlarni o'zida mujassam etgan.

O'zbekiston yetakchisi xavfsizlik loyihaning mutlaq va so'zsiz sharti ekanini alohida ta'kidladi. Stansiyani qurish va uni ekspluatatsiyaga tayyorlash ishlari eng zamonaviy xalqaro standartlar, ilg'or muhandislik yechimlari asosida hamda Xalqaro atom energiyasi agentligining doimiy nazorati ostida bajarilmoqda.

Ushbu ulkan loyihaning amalga oshirilishi va uning natijalari O'zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

5-iyun kuni davlatimiz rahbari 29-Peterburg xalqaro iqtisodiy forumining asosiy tadbirlarida ishtirok etishi ko'zda tutulgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi davom etmoqda.

YAQIN QO'SHNICHILIK VA STRATEGIK SHERIKLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4-iyun kuni Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Qirg'iz Respublikasi Prezidenti va qardosh xalqini mamlakatning 2027-2028-yillarda BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy bo'lmagan a'zosi etib saylangani munosabati bilan samimiy tabrikladi.

O'zbekiston yetakchisi mazkur muvaffaqiyat Qirg'izistonning faol tashqi siyosati hamda mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashga qo'shayotgan salmoqli hissasi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e'tirof etilayotganini yorqin ifodasi ekanini ta'kidladi.

Tomonlar xalqaro maydonda yaqindan muvofiqlashtiruv va o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom

ettirishga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar.

Suhbat chog'ida davlat rahbarlari O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlari bugungi kunda yuksak darajaga ko'tarilganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Oliy darajadagi uchrashuvlar davomida erishilgan, eng avvalo, iqtisodiyot, transport, energetika sohalarida, madaniy-gumanitar yo'nalishdagi kelishuvlarning amaliy ijrosini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Yetakchilar bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqdilar. O'ZA.

GLOBAL EKOLOGIK JAMG'ARMANING SAKKIZINCHI ASSAMBLEYASI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Hurmatli assambleya ishtirokchilari! Xonimlar va janoblari!

Sizlarni asrlar davomida Sharq va G'arbni, turli madaniyat va sivilizatsiyalarni, ilm-fan va amaliy bilimlarni bog'lab kelgan qadimiy Samarqand shahrida samimiy qutlash biz uchun ulkan sharafdir.

Bugungi yig'ilish 5-iyun — Butunjahon atrof-muhit kuni arafasida o'tayotgani alohida ramziy ma'noga ega. Shu munosabati bilan anjuman ishtirokchilarini ushbu muhim sana bilan chin dildan tabriklayman.

Barchangiz yaxshi xabardorsiz, bugungi kunda insoniyat misli ko'rilmagan inqirozlar — iqlim o'zgarishi, biologik xilmaxillikning yo'qolib borishi, atrof-muhit ifloslanishi kabi tahdidlarga duch kelmoqda.

Bu kabi muammolarni hal etishda Global ekologik jamg'arma alohida o'rin egallab kelmoqda. 186 ta davlatni birlashtirgan ushbu noyob global hamkorlik platformasi hozirga qadar 170 milliard AQSH dollaridan ziyod mablag'ni ekologik loyihalar uchun safarbar etgani tahsinga sazovordir.

Ming afsuski, iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelgan cho'llanish, yer degradatsiyasi, muzliklarning erishi va suv tanqisligi Markaziy Osiyo uchun asosiy tahdid bo'lib qolmoqda. Jahon banki tahliliga ko'ra, mintaqamizda qariyb 37 million kishi suv tanqisligi kuchli bo'lgan hududlarda yashamoqda va 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 75 millionga yetishi mumkin.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Yangi O'zbekiston mavjud muammolar ko'lamiga qaramay ekologik transformatsiyani yangi taraqqiyot modeli sifatida ko'rmoqda. Shu bois biz tizimli loyiha boshqaruviga o'tib, atmosfera havosini muhofaza qilish, bioxilmaxillik, chiqindilarni boshqarish, ko'kalamzorlashtirish, ekologik ta'lim va madaniyatni qamrab olgan beshta milliy loyihani amalga oshirmoqdamiz.

Mazkur tashabbuslar doirasida 2030-yilga qadar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini respublika hududining 21 foizigacha kengaytirish, havoga zararli tashlamalarni 10,5 foizga qisqartirish hamda har bir hududda dendrologiya va botanika bog'larini tashkil etish rejalashtirilgan.

Chiqindilardan energiya ishlab chiqarish bo'yicha joriy yilda 2 ta, kelgusi ikki yilda yana 9 ta zavodni ishga tushirish belgilangan, ular yiliga 5,5 million tonna chiqindini qayta ishlash orqali 1,1 million tonna "issiqxona gazlari" tashlamalarini qisqartirishga yordam beradi.

Mamlakatimizda ekologik ta'lim va ilm-fanning yagona ekotizimi shakllantirilib, "Green University" negizida 10 ta ilmiy-tadqiqot instituti va markaz hamda 14 ta "yashil" texnikum birlashtirildi, qariyb 2 million yoshning ekologik savodxonligini oshirish jarayoni boshlab yuborildi.

Biz o'tgan asrda yuz bergan Orol fojiasiga yangicha yondashib, uning oqibatlarini bartaraf etish, Orolbo'yi hududini tiklanish, ilm-fan va innovatsiyalar maydoniga aylantirish yo'lida 2 million gektardan ortiq unumdorligini yo'qotgan yerlarni qayta tiklamoqdamiz.

Mintaqaviy sa'y-harakatlarni birlashtirish va amaliy yechimlarni joriy etish maqsadida "Eco Expo Central Asia" platformasi yo'lga qo'yildi, u hududlar va sanoatdagi ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan loyihalarga moliyaviy resurslar va "yashil" yechimlarni jalb etishga xizmat qiladi.

Fursatdan foydalanib, Sizlarni tashkil etilgan ko'rgazmaga taklif qilaman. "Yashil" loyihalarimiz manfaatli kelishuvlarga asos bo'ladi degan umiddaman. Qadri do'stlar!

Albatta, iqlim o'zgarishining tobora kuchayib borayotgan salbiy ta'siri bizdan tezkor amaliy qadamlarni talab qilmoqda. Assambleya doirasida bir qator tashabbuslarni ilgari surmoqchimiz va ularni hayotga tatbiq etishda Sizlarning qo'llab-quvvatlashingiz biz uchun muhim ahamiyatga ega.

Birinçidan. Samarqandni "Markaziy Osiyoning yashil investitsiyalar va innovatsiyalar poytaxti" deb e'lon qilishni taklif etamiz.

Biz Samarqandni mintaqaviy "yashil" iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va iqlim moliyasi markaziga aylantirishni, shaharni pilot "yashil hudud" sifatida rivojlantirishni hamda ushbu tajribani keyinchalik respublikaning boshqa shaharlariga ham tatbiq etishni maqsad qilganmiz.

Ikkinçidan. Bundan 600-yil muqaddam Mirzo Ulug'bek Samarqandni ilm-fan markaziga aylantirgan bo'lsa, bugungi kunda Kolumbiya universitetining Barqaror rivojlanish markazi hamkorligida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti qoshida Ulug'bek nomidagi Barqaror rivojlanish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilmoqda.

Institut hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini "yashil" va barqaror rivojlanish asosida transformatsiya qilish, xalqaro ilmiy markazlar va moliya institutlarini jalb etish bo'yicha yetakchi ilmiy-tahliliy platforma bo'ladi, uning strategik boshqaruvi esa Prezident huzuridagi Vasiylik kengashi orqali amalga oshiriladi.

Uchinçidan. Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida iqlim o'zgarishi va gidrometeorologiya milliy markazi tashkil etilmoqda.

Markaz gidrometeorologiya, erta ogohlantirish, glyatsiologiya, iqlim ta'sirini baholash va "issiqxona gazlari" monitoringini uyg'unlashtirib, iqlim prognozlarini, modellashtirish, moslashuv va mitgatsiya dasturlari, mintaqaviy hamkorlik hamda WMO GAW va NASA AERONET dasturlarida ishtirok etish uchun institutsional zamin yaratadi.

To'rtinçidan. Yaqinda Qozog'iston Prezidenti bilan "Toza havo" davlatlararo konsorsiumini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishdik. Uning faoliyati "yashil" moliyani jalb etish, o'rmon-melioratsiya, ilmiy tadqiqotlar, sanoatni ekologik modernizatsiya qilish hamda monitoring va nazoratni kuchaytirishga qaratilgan. Mintaqaning barcha davlatlarini Konsorsium faoliyatiga qo'shilishga taklif etamiz.

Beshinçidan. Cho'llanishga qarshi kurash instituti negizida Orolbo'yi cho'llanish oqibatlarini yumshatish, "yashil" qalqaron barpo etish va iqlim moslashuviga qaratilgan "cho'l iqtisodiyoti" tashabbusini ilgari surib, uni GEFning ustuvor yo'nalishlari bilan hamohang holda xalqaro moliyaviy hamda texnik ko'mak asosida amalga oshirishni taklif etamiz.

Oltinçidan. 2027-yilgi Toshkent investitsiya forumi "Barqaror rivojlanish va yashil investitsiyalar" mavzusida o'tkazilib, uning doirasida "Eco Expo Central Asia" xalqaro ko'rgazmasi tashkil etiladi.

Forumda har bir hudud "yashil" investitsiyalarni jalb qilish uchun kamida 100 ta istiqbolli loyihani tayyorlab, investorlarga taqdim etadi.

Yana bir muhim tashabbusimizni e'lon qilmoqchiman. O'zbekiston Global ekologik jamg'arma donor mamlakatlari qatoriga qo'shilishga tayyor. Biz Jamg'arma Kengashi a'zosi sifatida qo'shma mintaqaviy tashabbuslarni amaliy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikni kengaytirishni maqsad qilganmiz.

Bugun o'z ishini boshlayotgan mazkur assambleya ekologik hamkorlikning yangi mintaqaviy arxitekturasini shakllantirishda muhim maydonga aylanishiga qat'iy ishonaman.

Anjuman ishiga ulkan muvaffaqiyatlar, barchangizga yangi yutuqlar va omad, oilaviy baxt-saodat va farovonlik tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

MAVJUD IMKONIYATLAR TO'LIQ RO'YOBGA CHIQARILADI

Serbiyaning Belgrad shahrida Parlamentlararo Ittifoq Parlamentlar ayol a'zolari global konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston parlament delegatsiyasi ishtirok etdi. Anjuman tadbirlari doirasida qator oliy darajadagi muloqotlar ham uyushtirildi. Xususan, kuni kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Serbiya Respublikasi Prezidenti Aleksandr Vuchich bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv

Ushbu muloqotda Serbiya yetakchisi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga samimiy va ezuq tilaklarini yo'llab, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni o'zaro ishonch va do'stlik ruhida izchil rivojlanib borayotganini alohida ta'kidlab o'tdi.

Suhbat chog'ida oliy darajada siyosiy muloqotni davom ettirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda istiqbolli qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalariga e'tibor qaratildi. Xususan, to'qimachilik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, turizm, transport-logistika, sanoat kooperatsiyasi va energetika kabi yo'nalishlarda ikki tomonlama hamkorlik salohiyati yuqori ekanini qayd etildi.

Aleksandr Vuchich mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli

islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini yuksak baholab, O'zbekistonni Yevroosiyo mintaqasidagi eng jadal rivojlanayotgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etdi.

Shuningdek, Serbiya Prezidenti Belgradda o'tkazilgan Parlamentlararo Ittifoq tadbirlarida O'zbekiston delegatsiyasining faol ishtirokini qizg'in qutlab, bu yo'nalishda aloqalarni yanada faollashtirish davlatlararo munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladi.

Uchrashuv yakunida Serbiyaning O'zbekiston bilan barcha yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga qat'iy intilishi bildirildi.

Shuningdek, Senat Raisi Serbiya Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari - iqtisodiyot vaziri Adriana Mesarovich bilan ham uchrashuv o'tkazdi.

Adriana Mesarovich O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish va qarorlar qabul qilish jarayonlarida ularning rolini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni yuqori baholab, bu mamlakat iqtisodiy rivoji uchun muhim ekanini qayd etdi.

Muzokaralar chog'ida O'zbekiston - Serbiya savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarining bugungi holati hamda istiqbolli muhkama qilindi. O'zaro tovar ayirboshlashni ko'paytirish, qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, sanoat, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, axborot texnologiyalari va elektron tijorat sohaslarida hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

To'qimachilik sanoatida sheriklikni rivojlantirish, jumladan, qo'shma korxonalar tashkil etish va ikki mamlakat korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirishdan tomonlar manfaatdor ekanini ta'kidladi.

Hamkorlikning mavjud salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun O'zbekiston va Serbiya xalqlari manfaatli yo'lida ishbarmon doiralarda o'rtasidagi aloqalarni faollashtirish muhimligi ta'kidlandi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston - Malayziya:

ALOQALAR YANADA KENGAAYADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Spiker N. Ismoilovning Malayziyaning O'zbekistondagi o'z faoliyatini yakunlayotgan Favqulodda va Muxtor elchisi Ilham Tua bin Illias bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqot

Uchrashuvda so'nggi yillarda oliy darajadagi muloqotlar faollashib borayotgani, davlat rahbarlarining siyosiy irodasi bilan ikki tomonlama hamkorlik sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarilgani qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil fevral oyida Malayziyaga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni rivojlantirishga katta sur'at bag'ishlab, o'zaro hamkorlik aloqalarida yangi sahifa ochgani ta'kidlandi.

Qonunchilik palatasi Spikeri elchining O'zbekiston - Malayziya munosabatlari yanada rivojlantirish va mustahkamlash, mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali

hamkorlikni izchil kengaytirishga qo'shgan salmoqli hissasini alohida qayd etdi.

O'z navbatida, elchi samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, O'zbekistondagi faoliyati davomida mamlakat, uning mehmondo'st xalqi va boy madaniy merosi haqida juda iliq taassurotlarga ega bo'lganini ta'kidladi.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan tarixiy islohotlarni yuqori baholab, bu O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qilayotganini alohida e'tirof etdi.

Elchining ta'kidlashicha, so'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro parlamentlararo



muloqotlar, o'zaro manfaatli hamkorlik va konstruktiv siyosiy muloqotning muhim markazlaridan biriga aylanib bormoqda.

Uchrashuv davomida ikki davlat parlamentlari hamkorlik munosabatlarining hozirgi holati va uni yanada kengaytirish masalalari ham muhkama qilindi.

Parlament diplomatiyasi salohiyatidan samarali foydalanish, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish lozimligi ta'kidlandi.

Uchrashuv do'stona va konstruktiv ruhda o'tdi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

EKOLOGIYA SOHASIDAGI DOLZARB MASALALAR VA ULARNING YECHIMLARI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi, Ekologik partiya fraksiyasi hamda Adliya vazirligi hamkorligida "O'zbekistonning ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorligi: muammo va yechimlar" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

5-iyun - Butunjahon atrof-muhit kuni munosabati bilan tashkil etilgan tadbirda deputatlar, Adliya vazirligi vakillari, Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o'qituvchilari, Polsha, Turkiston, Qozog'iston, Turkiya, Belarus, Ozarbayjon kabi ko'plab xorijiy davlatlarning yetakchi huquqshunos olimlari, ekologlar hamda jurnalistlar qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, 1972-yil 5-iyun kuni Stokgolm shahrida BMTning atrof-muhitga bag'ishlangan konferensiyasida Butunjahon atrof-muhit kunini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilingan. Xalqaro ekologik sana insonlarni tabiat muhofazasi bilan bog'liq faoliyatga jalb etish, keng jamoatchilik tafakkurida tabiiy resurslarni asrash, ulardan oqilona foydalanish orqali tabiiy boyliklarni kelgusi avlodlarga yetkazish mas'uliyatini

anglatishga qaratilgani bilan bir qatorda, xalqaro hamjamiyatning e'tiborini atrof-muhitni muhofaza qilish hamda global ekologik muammolarning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbir ko'rishga undaydi.

Bugungi kunda butun dunyoda, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida kuzatilayotgan global iqlim o'zgarishlari, suv resurslarining taqchilligi va bioxilmaxillikni saqlab qolish masalalarini bunday xalqaro hamkorlikni taqozo etmoqda. Konferensiyaga aynan shu kabi global ekologik chaqiriqlarga aniq huquqiy yechimlar izlash, sohaga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda tajriba almashish maqsadida o'tkazildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar

amalga oshirilmoqda. Sohaning huquqiy asoslari ham takomillashtirilmoqda. Xususan, "Ekologik audit to'g'risida"gi, "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'siri baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Konferensiyaning yalpi va shu'ba yig'ilishlarida barqaror ekologik rivojlanishni ta'minlashda O'zbekiston tajribasining asosiy jihatlari, ekologik qonunchilikni kodifikatsiyalash, iqlim o'zgarishlari salbiy oqibatlarining oldini olish masalalari muhkama etildi.

Zebiniso RAHMONOVA, qo'mita a'zosi:

Anjuman ekologiya sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, mavjud muammolarga huquqiy yechimlar ishlab chiqish va ilg'or tajribalarni o'rganish uchun muhim muloqot maydoni bo'ldi. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi, suv resurslarini muhofaza qilish va bioxilmaxillikni saqlash kabi dolzarb masalalar yuzasidan bildirilgan takliflar milliy qonunchilikni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soha mutaxassislari bilan o'zaro fikr almashinuvimiz ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda dor muhim tavsilyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadbir doirasida qizg'in munozaralar yakuni bo'yicha tegishli ilmiy-amaliy xulosalar qabul qilindi.



Senat qo'mitalarida

KUN TARTIBIDA - YANGI MARKAZLAR FAOLIYATIGA DAXLDOR QONUNLAR

Kecha Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi majlisida "Toshkent xalqaro moliya markazi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun muhkama qilindi.



Qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiyalar hajmini ko'paytirish, kapital bozorini rivojlantirish va ilg'or xalqaro standartlarni joriy etish borasidagi ishlar izchil amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro moliya, huquq va texnologiyalar sohaslarida yuqori maoshli ish o'rinlarini yaratish hamda inson kapitalini rivojlantirish, mamlakatning kredit reytingini oshirish va O'zbekiston Respublikasining xalqaro investitsiya reytinglaridagi mavqeiini mustahkamlash borasida samarali ishlar olib borilyapti. Shuningdek, respublikani mintaqaviy moliyaviy markazga aylantirish va global moliyaviy tizimga integratsiyasini ta'minlash sohasi ham jadal rivojlanmoqda.

Mazkur qonun bilan Toshkent xalqaro moliya markazi faoliyatini asosiy prinsiplari, maqsadi va vazifalari, ishtirokchilari, markaz hududida amalga oshiriladigan faoliyat, qo'llaniladigan huquq, raqamli aktivlar sohasida maxsus tartibga solish rejimi hamda markazning investitsiyaviy soliq rezidentligi dasturi belgilanmoqda.

Bundan tashqari, qonunda Toshkent xalqaro moliya markazi hududida jinoyi yurisdiksiyani amalga oshirish, markaz ishtirokchilarining pul majburiyatlarini va valyutani tartibga solish, soliq va bojxona rejimlari, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun viza tartibi, xorijiy ishchi kuchini jalb etish bo'yicha normalar ham belgilanmoqda.

Markaz organlari, Kengash, boshqaruvchi, moliyaviy xizmatlar boshqarmasi va Toshkent xalqaro tijorat sudining vakolatlari, markazda qo'llaniladigan til rejimi, o'tish qoidalarida hamda uni faollashtirish tartibi aniqlashtirilmoqda.

Shu bilan birga, o'tish davrida litsenziyalarni tan olish, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun vaqtincha ruxsat berish va xalqaro litsenziyaga ega yuridik shaxslar

uchun ixtiyoriy o'tish davri litsenziyasini berishga oid me'yorlar ham kiritilmoqda.

Konstitutsiyaviy qonun bilan markaz Kengashiga uni rivojlantirishning umumiy yo'nalishi va strategiyasini belgilash hamda yillik byudjeti, auditorlik xulosalari va faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini tasdiqlash kabi vakolatlarni berilmoqda.

Shuningdek, Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi yig'ilishida "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun ham muhkama qilindi.

Ushbu qonun bilan mazkur markaz hududida maxsus huquqiy rejimini yaratish, xususan, ro'yxatga olish, litsenziyalash va tadbirkorlik tartib-taomillarini soddalashtirish, tijorat operatsiyalarini tartibga solishda xalqaro standartlarni qo'llash nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, moslashuvchan soliq va bojxona rejimi, ayrim faoliyat turlari bo'yicha soliqlardan ozod qilish, asbob-uskunalar, texnologiyalar va materiallarni olib kirishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish belgilanaypti.

Qonunda markaz va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning aniq tartiblarini belgilash, biznes yuritishda ma'muriy to'siqlarni qisqartirish nazarda tutilgan.

Markaz faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida 2030-yilga qadar yurtimizda raqamli xizmatlar eksporti 5 mlrd. AQSH dollariga yetkazish, iqtisodiyotimizda yuqori daromad keltiruvchi 300 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratish hamda ko'plab iqtidorli yoshlarning mamlakatimiz rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishiga sharoit yaratiladi.

Senatorlar tomonidan Konstitutsiyaviy qonun IT sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirishga, raqamli sektorga kirib keladigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ko'paytirishga, raqamli texnologiyalar sohasida yangi ish o'rinlari yaratishga hamda IT xizmatlari eksport hajmini kengaytirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Muhokamalar yakunida qonunlarni navbatdagi yalpi majlis kun tartibiga kiritish yuzasidan qo'mitalarning tegishli qarorlari qabul qilindi.

Senator va hayot

MAHKUMLARNING YASHASH SHAROITI KO'ZDAN KECHIRILDI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi a'zosi Komila Karamova Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi jazoni ijro etish muassasasida mahkumlar bilan uchrashdi.

Suhbat davomida Senat yalpi majlislarida qabul qilingan qonunlarning mazmun-huquqiy, ularning fuqarolar huquq va manfaatlarini ta'minlashdagi ahamiyati batafsil tushuntirildi. Uchrashuvda mahkumlarni qiziqitirgan masalalar bo'yicha savollarga ham atroflicha javob qaytarildi. Shuningdek, sayyor qabul tashkil etilib, ularning o'ndan ortiq murojaatlari ko'rib chiqildi hamda har bir murojaat yuzasidan huquqiy tushuntirish va amaliy tavsiyalar berildi.

Senator muassasada mahkumlarning mehnat bilan bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga jalb etish hamda bosh vaqtlarini mazmunli ta'minlashdagi muassasada yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Xususan, ishlab chiqarish sexlari, kasb-hunar o'rgatish xonalari va madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish uchun tashkil etilgan obyektlar ko'zdan kechirildi.

Ta'kidlanganidek, mahkumlarning mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi, kasbiy ko'nikmalarni egallashi va o'z ustida ishlashi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash hamda jazo muddati tugagach jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Senatorning jazoni ijro etish muassasasi xodimlari bilan uchrashuvi davomida muassasa faoliyatini yanada takomillashtirish, mahkumlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ishlar yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar bildirildi.

ham sodir etilgan. Xususan, oxirgi ikki yilda 46 nafar rahbar kadrlar jinoiyatga qo'l urgan.

Viloyatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar samarali tashkil etilganligini natijasida mansabdor shaxslar tomonidan belgilangan vazifalarga mas'uliyat bilan yondashilmagan.

Hududiy idoralarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni belgilash tavsiya etildi.

Majlis yakunida Senat qo'mitasi hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining hududida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini yaxshilash va huquqbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan qo'shma qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

KADASTR TIZIMI KORRUPSIYADAN TOZALANADIMI?

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining ushbu viloyatda o'tkazilgan qo'shma majlisida kadastr tizimida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ishlar muhkama qilindi.

Yig'ilish

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mazkur tizimda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, aholiga sifati davlat xizmatlari ko'rsatish hamda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yer ajratish, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish va davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonlarida qonun buzilishi holatlarini barvaqt aniqlash hamda ularga chek qo'yish bo'yicha nazorat kuchaytirildi.

Shu bilan birga, kadastr tizimida korrupsiyaning oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar tahlili o'z yechimini kutayotgan qator masalalar mavjudligini ko'rsatdi.

Jumladan, 2024-2025-yillar va 2026-yilning I choragida Kadastr agentligining 425 nafar xodimi tomonidan 347 ta korrupsiyaviy va mansabdorlik jinoyati sodir etilgan. Ushbu jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 70 mlrd. so'mdan ortiq moddiy zarar yetkazilgan.

Qonunbuzarliklar faqat xodimlar tomonidan emas, balki rahbarlar tomonidan

BARQAROR RIVOJLANISH BO'YICHA MILLIY VAZIFALAR IJROSI MUHOKAMASI

Qonunchilik palatasining Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan Sog'liqni saqlash hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirliklarining "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning ijrosi to'g'risida"gi axborotlari eshitildi.

Unda deputatlar, tegishli vazirliklar, ijtimoiy himoya milliy agentligi, Migratsiya agentligi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi mutasaddilari, ekspertlar hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Yig'ilishda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy darajada amalga oshirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish hamda kambag'allikni qisqartirish sohasidagi olib borilayotgan ishlar samaradorligi muhkama qilindi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda aholi turmush darajasini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning hayot sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim sohalarni modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu jarayonlarda barqaror rivojlanish tamoyillari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, milliy maqsad va vazifalarning samarali ijrosini

ta'minlashga xizmat qiluvchi aniq mexanizmlar shakllantirildi. Eshituv davomida aholi salomatligini muhofaza qilish, profilaktik tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirish, onalik va bolalik himoyasi, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish hamda bandlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tegishli mas'ul idoralarning axborotlari ham tinglandi.

Taqdim etilgan axborotga ko'ra,



Sevara UBAYDULLAYEVA, qo'mita a'zosi:

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish har bir sohada aniq natijadorlik va mas'uliyatni talab etadi. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy vazifalarning samarali ijrosini ta'minlashda davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, natijadorlikka asoslangan monitoring tizimini takomillashtirish, ijtimoiy sohada raqamli texnologiyalardan keng foydalanish hamda parlament nazorati ta'sirchanligini oshirish muhim. Biz, deputatlar bu boradagi ishlarning tizimli va samarali tashkil etilishi, belgilangan maqsad va vazifalarning o'z vaqtida hamda sifati bajarilishi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish, aholi manfaatlarini himoya qilish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga munosib hissa qo'shishda faol ishtirok etamiz. Yig'ilish yakunida mazkur masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

AMIN HAMROYEVICH TOJIYEV

Butun hayoti va mehnat faoliyatini mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga bag'ishlagan taniqli davlat va jamoat arbobi, mehnat faxriysi Amin Hamroyevich Tojiyev 2026-yil 4-iyun kuni 79 yoshida vafot etdi.



A. Tojiyev 1947-yil 12-aprelda To'rtko'l tumanida tug'ildi. O'rta maktabni tugatganidan so'ng Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirish muhandislar instituti (hozirgi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirish muhandislar instituti" milliy-tadqiqot universiteti)ni muhandis-mexanik mutaxassisligi bo'yicha tamomladi. Mehnat faoliyatini 1968-yil To'rtko'l tumanidagi al-Xorazmiy nomidagi jamoa xo'jaligining texnika xavfsizligi muhandisi sifatida boshladi. Keyinchalik To'rtko'l, Ellikqal'a, Amudaryo tumanlarida rahbarlik lavozimlarida ishladi.

Katta tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan A. Tojiyev Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, qishloq xo'jaligi vaziri, O'rmon xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i, O'zbekiston Respublikasi davlat agrosanoat qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari kabi mas'ul lavozimlarda fidokorona mehnat qildi.

A. Tojiyev o'zining 50 yildan ziyod mehnat faoliyati davomida Orolbo'y mintaqasidagi murakkab sharoitda hududni ijtimo'iyo-iqtisodiy rivojlantirish, infratuzilma tarmoqlarini yaratish, aholining turmush darajasini yuksaltirish bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshirdi.

Xususan, suv taqisligini bartaraf etish maqsadida "Tuyamo'yin - Nukus - Taxtakopir" sug'orish tarmog'i va ko'plab ijtimoiy va madaniy obyektlarni barpo etishda jonbozlik ko'rsatdi.

U nafaqaga chiqqanidan keyin ham Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib, ekologik muhitni yaxshilash, aholi uchun qulay sharoitlar yaratish, keng ko'lamli qurilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borishga qaratilgan loyihalarni ro'yobga chiqarish, keksa avlod manfaatlarini himoya qilish, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga o'zining boy hayotiy bilim va tajribasini baxsh etdi.

A. Tojiyevning mamlakatimizni taraqqiy ettirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U "El-yurt hurmati", "Do'stlik" va "Mehnat shuhrati" ordenlari, "Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan mexanizator" faxriy unvoni bilan mukofotlangan edi.

Taniqli davlat va jamoat arbobi, yoshlarning mehribon ustosi, samimiy va kamtarin inson Amin Hamroyevich Tojiyevning xotirasini qalbimizda hamisha saqlab qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, A. ORINBAYEV, F. ERMONOV, S. TURDIYEV

INVESTORLARNING YUKSAK ISHONCHI IFODASI

"Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligi O'zbekistonning suveren kredit reytingi prognozini "barqaror"dan "ijobiy"ga o'zgartirib, "BB" darajasida tasdiqladi

Jahon iqtisodiyotida saqlanib turgan beqarorlik hamda global moliya bozorlaridagi noaniqliklarga qaramasdan O'zbekistonda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yaxshilanib, barqaror o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Bu esa xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib e'tirof etilmoqda. "Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligi O'zbekistonning suveren kredit reytingi prognozini "barqaror"dan "ijobiy"ga o'zgartirib, "BB" darajasida tasdiqlaganini buning yorqin dalili. Shubhasiz, bu Prezidentimiz tomonidan izchil amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yuksak samarasidir.

E'tirof

"Fitch Ratings" kuni kecha e'lon qilgan hisobotda qayd etilishicha, mamlakat iqtisodiyoti yuksalish salohiyatini saqlab qolgan bo'lib, yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi 2026-yilda 6 foizni, 2027-2028-yillarda esa o'rtacha 6.4 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Buning asosiy omillaridan biri sifatida tarkibiy o'zgarishlar izchil davom ettirilayotganini keltirilmoqda. Ya'ni oqilona pul-kredit siyosati yuritilib, xususiy lashtirish jarayoni

shaffofligi ta'minlanayotgan, biznes yuritish tobora liberallashtirilmoqda. Qolaversa, O'zbekiston Milliy investitsiya jamg'armasining joriy yil may oyida dunyo kapital bozorlariga chiqishi xalqaro hamkorlik yo'lida tashlangan navbatdagi muhim qadam bo'ldi.

Agentlik davlat qarzinang pastligini O'zbekiston iqtisodiyotining kuchli tomonlaridan biri sifatida e'tirof qilmoqda. Prognozlariga ko'ra, davlat qarzinang yalpi ichki mahsulotga nisbati pasayishi davom etib,

kelgusi yillarda 28 foizga tushishi mumkin. Bundan tashqari, mamlakatning xalqaro xazinalari ham ijobiy baholandi. Agentlikning ta'kidlashicha, xalqaro xazinalar allaqachon 66 milliard dollarga yetgan bo'lib, ushbu raqam 71 milliard dollargacha oshishi mumkin. Xalqaro xazinalarning mustahkamlanishi tashqi xatarlar ta'siriga chidamlilik va moliyaviy barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

Shuningdek, "Fitch Ratings" inflyatsiya darajasi pasayib,



iqtisodiyotning dollarlashuvi bosqichma-bosqich qisqarib borayotgani va bank-moliya sektori faoliyatini ham yuqori baholadi. Bularning bari xalqaro investorlar tomonidan mamlakatimizga bildirilgan

yuksak ishonch belgisidir. Binobarin, O'zbekiston suveren kredit reytingini oshirish bo'yicha belgilangan strategik maqsad - 2030-yilga qadar yurtimiz reytingini "investitsiyaviy" darajaga olib chiqish.

Bir guruh ekspertlar O'zbekiston suveren kredit reytingi prognozining mamlakat iqtisodiyoti va investitsiyaviy muhitida tutgan o'rni hamda ahamiyati haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Mash'al SAIDOV, Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor:



- Dunyodagi eng yirik va nufuzli xalqaro agentliklardan biri bo'lgan "Fitch Ratings"ning O'zbekiston suveren kredit

reytingi prognozini "barqaror"dan "ijobiy"ga o'zgartirishi xalqaro sarmoyaviy hamjamiyat uchun muhim signal, mamlakat iqtisodiy siyosatiga ishonchning o'ziga xos ko'rsatkichidir. Chunki azaldan bunday reyting baholari investitsiyalar oqimini boshqarish, istiqbolli bozor topish va ishonchli hamkor tanlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Shu ma'noda, agentlikning bu galgi qarori mamlakatimizda olib borilayotgan tarkibiy o'zgarishlar berayotgan

beqiyos samaralarning yorqin ifodasi bo'ldi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, moliya tizimini takomillashtirish, davlat aktivlarini xususiy lashtirish, boshqaruvda shaffoflikni oshirish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Tahliilchilar ushbu o'zgarishlarni diqqat bilan kuzatib boryapti, albatta. Ayniqsa, O'zbekiston Milliy investitsiya jamg'armasining xalqaro kapital bozorlariga chiqishi, agentlik e'tirof etganidek, mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon moliya tizimiga integratsiyasi chuqurlashib borayotganini tasdiqlaydi. Bu esa xorijiy investorlar uchun O'zbekistonga sarmoya kiritish yo'lida yangi imkoniyatlar paydo bo'lganidan dalolat beradi.

Ma'lumki, investitsiyalar iqtisodiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi eng muhim omillardan biri bo'lib, ular hajmining oshib borishi barqaror o'sish sur'atlarini jadallashtiradi. Chunki

investitsiya oqimlari ko'payishi aholi farovonligini yuksaltirishda strategik ahamiyat kasb etib, avvalo, bandlikni kengaytirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda xizmatlar sifatini yaxshilash uchun zarur ishlab chiqarish va infratuzilma bazasini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, investitsiyalar mamlakat eksport salohiyatini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Shu ma'noda, yetakchi reyting agentligining o'z prognozini "ijobiy"ga o'zgartirishi investitsiyaviy resurslar uchun hozirgi kuchli raqobat sharoitida O'zbekistonning xalqaro nufuzini yanada mustahkamlaydi. Iqtisodiyotning real sektoriga yangi sarmoyalar oqimini burish, kapital investitsiyaviy hamkorlik aloqalarini kengaytirish, xorijdan biz uchun maqbul kredit liniyalarini jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Sherzod RAJABOV, Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor:



- Xalqaro moliyaviy maydonda O'zbekistonning mavqei yuksalib borayotgani davlatimiz yuritayotgan ochiqlik, shaffoflik va pragmatik iqtisodiy siyosatning mahsulidir. "Fitch Ratings" agentligining ijobiy bahosi mamlakatimiz iqtisodiy suvereniteti mustahkamligini yana bir bor namoyish qildi. Bu yutuq yangi marjalarini zabt etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish va barqaror kelajakni qurish yo'lidagi islohotlarga yanada katta kuch va ishonch bag'ishlaydi.

So'nggi yillarda Prezidentimizning xorijiy davlatlarga amalga oshirgan rasmiy va davlat tashriflari an'anaviy siyosiy muvofiq doirasidan chiqib, sof amaliy va iqtisodiy xarakter kasb etmoqda. Har bir tashrif avvalida yirik biznes-forumlarning tashkil qilinishi va ularda milliardlab dollarlik shartnomalar imzolaniishi buning yaqqol dalilidir. Sanoat kooperatsiyasi, qo'shma investitsiya fondlarining tashkil etilishi transchegaraviy loyihalarni moliyalashtirish imkonini berdi. Xitoy, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni va BAA kabi davlatlar bilan hamkorlik tufayli O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi keskin ko'paydi. Ayniqsa, "yashil" energetika, kimyo sanoati va infratuzilmani yangilash yo'nalishida yirik transmilliy kompaniyalar mamlakatimizga kirib keldi. Yevropa Ittifoqi va AQSH bilan hamkorlik yuqori texnologiyalar transferi, raqamlashtirish va qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashtirishga xizmat qilmoqda.

Eng muhimi, investitsiyalar siyosatida tarkibiy o'zgarish yuz berdi: endilikda xorijiy sarmoyalar faqat xomashyo qazib olishga emas, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilmoqda. Bu import hajmini kamaytirib, eksport salohiyatini oshirmoqda. Natijada kechagina ehtiyotkorlik bilan O'zbekiston bozoriga kirib kelgan sarmoyador bugun erkin faoliyat yuritish orqali biznesda belmal nafas olayotir. Bu ham xalqaro reyting tashkilotining nazardan chetda qolmagani.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan yillik xorijiy investitsiyalar hajmi 22 milliard dollardan oshib, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi 14 milliard dollarni tashkil etdi. Bu, albatta, davlatimiz rahbarining tashabbuskorligi samarasidir.

Tashqi investitsiyalarni faol jalb qilish ichki iqtisodiy transformatsiya bilan uzviy bog'liq. Shu bois davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat aktivlarini xususiy lashtirish mulloqo yangi sur'atda davom ettirilmoqda. Bu jarayonlarning "E-aksion" elektron platformasi orqali ochiq-oshkora o'tkazilishi investorlarning tizimga ishonchini oshirdi.

Xalqaro reyting agentliklari, xususan, O'zbekistonning suveren kredit reytingi bo'yicha prognozini "barqaror"dan "ijobiy"ga o'zgartirgan va reytingni "BB" darajasida tasdiqlagan "Fitch Ratings" ham o'z hisobotida aynan mana shu institutsional islohotlar, xususiy lashtirish sur'atlari va tashqi iqtisodiy ochiqlik siyosatini asosiy ijobiy omillar sifatida keltirgan.

"Xalq so'zi".

Xalqaro anjuman

TABIIY MUVOZANATNI SAQLASH YO'LIDAGI MUSHTARAK MAQSADLAR

Samarqandda Global ekologik jamg'arma (GEF) ning VIII assambleyasi rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirda dunyoning 186 mamlakatidan vazirlar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, olimlar, fuqarolik jamiyati vakillari hamda yoshlar ishtirok etdi.

Assambleya doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, bioxilmaxillikni saqlash hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash kabi dolzarb masalalar keng muhokama qilinmoqda. Shuningdek, ekologik muammolarga yechim topishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va innovatsion yondashuvlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Said Mirziyoyeva O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning assambleya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi.

Unda qayd etilganidek, xalqaro anjuman 5-iyun - Butunjahon atrof-muhit kuni arafasida o'tayotgani alohida ramziy ma'noga ega.

Yangi O'zbekiston ekologik transformatsiyani taraqqiyotning yangi modeli sifatida ko'rmoqda. Mamlakatda atmosfera havosini muhofaza qilish, bioxilmaxillikni asrash, chiqindilarni boshqarish, ko'kalamzorlashtirish, ekologik ta'lim va madaniyat masalalarini qamrab oluvchi beshta milliy loyiha amalga oshirilmoqda.

Ekologik ta'lim va ilm-fanning yagona ektizimi shakllantirilib, "Green University" negizida 10 ta ilmiy-tadqiqot instituti, markaz hamda 14 ta "yashil" texnikum birlashtirilgan, qariyb 2 million yoshing ekologik savoxonligini oshirish jarayoni boshlangan.

Orolbo'y hududini tiklash, ilm-fan va innovatsiyalar makoniga aylantirish bo'yicha keng ko'lami choralar, jumladan, degradatsiyaga uchragan ikki million gektardan ortiq yerlarni qayta tiklash ishlari olib borilmoqda.

qator xalqaro tashabbuslari ilgari surildi. Samarqandni "Markaziy Osiyoning "yashil" investitsiyalar va innovatsiyalar poxtaxti" deb e'lon qilish, Kolumbiya universitetining Barqaror rivojlanish markazi bilan hamkorlikda Ulug'bek nomidagi Barqaror rivojlanish ilmiy-tadqiqot institutini, shuningdek, Milliy iqlim o'zgarishi va gidrometeorologiya markazini tashkil etish shular jumlasidan.


Tabrakda O'zbekistonning Global ekologik jamg'arma donor mamlakatlari qatoriga qo'shilishiga tayyor ekanini ham ma'lum qilinib, mintaqaviy ekologik tashabbuslarni faol qo'llab-quvvatlash niyati bildirildi.

Marosimda BMT Bosh kotibi o'rinbosari - atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) ijrochi direktori Inger Andersen, Bazel, Rotterdam va Stokgolm konvensiyalarining ijrochi kotibi Rolf Payat hamda GEF bosh direktori va strategiya hamda operatsiyalar bo'yicha direktori Klod Gaskon ham nutq so'zladi. Tadbir ishtirokchilari global ekologik muammolarga samarali javob berish uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ilmiy salohiyatni birlashtirish va iqlimga doir moliyalashtirish hajmini kengaytirish muhimligini ta'kidladi.

Samarqandda bo'lib o'tayotgan GEFning VIII assambleyasi nafaqat xalqaro forum, balki O'zbekiston uchun global "yashil" kun tartibida o'z pozitsiyasini mustahkamlash, investitsiyalarni jalb etish va milliy ekologik ustuvor yo'nalishlarni jadallashtirishga xizmat qiladigan strategik imkoniyatdir.

Abdulaziz YO'LDOSHEV ("Xalq so'zi").

Yoqub ERGASHEV, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, fizika-matematika fanlari doktori, professor:



- "Fitch Ratings" tomonidan O'zbekistonning istiqbol ko'rsatkichi "ijobiy" deb e'lon qilinishi mamlakat iqtisodiyoti to'g'ri yo'nalishda, jadal sur'atlar bilan rivojlanayotganiga berilgan xalqaro bahodir. "VV" darajasidagi reytingning mustahkamlanishi O'zbekistonning tashqi "shok"larga va global geosiyosiy tebranishlarga nisbatan chidamlilik ortganini ko'rsatadi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki hozirgi murakkab xalqaro vaziyat, xomashyo bozorlaridagi beqarorlik va logistika zanjirlaridagi uzilishlarga qaramay, O'zbekiston iqtisodiyotida yuqori o'sish dinamikasini namoyish etyapti.

shundaki, O'zbekistonning oltin-valyuta xazinalari mustahkamlanib borayotgani davlatning tashqi majburiyatlarini bajarish va milliy valyuta barqarorligi kafolati ekanligi e'tirof qilinmoqda. Agentlik o'z bayonotida O'zbekiston davlat qarzinang yuqori chegarasi qonunon YAIMga nisbatan 60 foiz etib belgilangan bo'lsa-da, amalda bu ko'rsatkich ancha past ekanini alohida ta'kidlagan. Shuningdek, energiya resurslari tariflarini bosqichma-bosqich liberallashtirish, davlat korxonalarini xususiy lashtirish jarayonlari va monopoliyaga qarshi kurash siyosati xalqaro tahliilchilar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Yana bir muhim jihat

reytingining "ijobiy"ga o'zgarishi dunyodagi yirik investorlar uchun "O'zbekistonga qo'rqmasdan sarmoya kiritish"ning imkonini beradi. Shuningdek, mazkur holat nafaqat davlat, balki mamlakatimizning yirik tijorat banklari va kompaniyalari uchun ham xalqaro moliya bozorlaridan pastroq foiz stavkalarida kreditlar va investitsiyalar jalb qilish imkonini beradi. Natijada mahalliy tadbirkorlarga beriladigan kreditlar qiymati ham arzonlashadi. Jalb etiladigan investitsiyalar hisobiga yo'llar, maktablar, shifoxonalar qurilishi, elektr va gaz ta'minoti tizimlarini modernizatsiyalashtirish ishlari jadallashadi. Bu esa aholi turmush darajasini to'g'ridan-to'g'ri yaxshilashga xizmat qiladi.

OLIV VA KASBIY TA'LIM MUASSASALARIGA O'QISHGA KIRISH UCHUN QABUL JARAYONLARI BOSHLANDI

Bugun yurtimizdagi oliy va kasbiy ta'lim dargohlariga o'qishga kirish uchun qabul jarayonlari start oldi.

"Abituriyentlar - 2026"

Ma'lumki, oliygo'har bakalavriyatga qabul jarayoni ikki bosqichda - "avval test, so'ng tanlov" tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi. 1-bosqichda abituriyentlar 5-iyundan 25-iyungacha qadar (shu kun ham) test sinovi topshirish uchun "my.uzbmb.uz" saytida onlayn ro'yxatdan o'tishlari dardor.

Talabgor agar faqat test sinovida ishtirok etsa, fanlar majmuasi, ta'lim tili va test topshirish hududini tanlaydi. Agar alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kasbiy/ijodiy imtihonlarda qatnashadigan bo'lsa, ta'lim tili, test topshirish hududi, alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishi hamda kasbiy (ijodiy) imtihon

topshiriladigan oliygo'har tanlashi kerak bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari iyul-avgust oylarida o'tkaziladi. Ushbu 2-bosqichda abituriyentlar kirish imtihonlari to'liq yakunlanganidan so'ng 15 kun davomida "my.uzbmb.uz" sayti orqali oliy ta'lim muassasasi, bakalavriat ta'lim yo'nalishi, ta'lim shakli va tanlov ustuvorligini tanlashlari lozim.

Abituriyent test sinovida to'plagan ballarini imtihon o'tkazilgan kunning ertasiga, talabalikka tavsiya etilgan yoki etilmaganini qabul jarayonining

2-bosqichi to'liq yakunlangandan keyin bir hafta muddatda Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-saytidan bilib olishlari mumkin.

Texnikumlarda o'qish istagini bildirgan abituriyentlar esa oliy o'quv yurtlariga qabulning yakuniy natijasi e'lon qilinganidan so'ng 10 kun muddatda texnikum, kasb va mutaxassislik hamda ta'lim shaklini tanlashlari zarur. Bunda ham natijalar bir hafta muddatda agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Ayni kunlarda abituriyentlar

va ularning ota-onalariga qulayliklar yaratish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda barcha oliy ta'lim tashkilotlarida "Qabul - 2026" shtabi faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, talabgorlar vazirlikning 1006, agentlikning 1195 raqamli "ishonch telefoni" yoki Telegram ijtimoiy tarmog'idagi "@EduuzUniversalBot"ga murojaat qilgan holda o'zlarini qiziqirgan savollariga javob olishlari mumkin.

Rahmatjon BOBOJONOV ("Xalq so'zi").

ILM-FAN – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING STRATEGIK YO'NALISHI

Bugungi kunda har qanday davlat rivoji ilm-fan, innovatsiya va texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi, iqtisodiy barqarorligi va intellektual salohiyati aynan ushbu omillar bilan belgilanmoqda. Shu bois ilm-fan sohasini modernizatsiya qilish Yangi O'zbekiston taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish 2026-yildagi taraqqiyotimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangani ham bejiz emas. Chunki bunday strategik maqsadlarga ilm-fan salohiyatini izchil mustahkamlash, tadqiqot muhitini rivojlantirish va ilmiy faoliyat maqomini yuksaltirish orqaligina erishish mumkin.

Nuqta nazar

So'nggi yillarda mamlakatimizda ilm-fanni qo'llab-quvvatlash, ilmiy faoliyatni rag'batlantirish va tadqiqot muhitini yaxshilash bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Xususan, Davlat byudjeti mablag'larining salmoqli qismi ijtimoiy sohaga, jumladan, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Natijada ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi sezilarli darajada oshdi.

Jumladan, 2025-yilda umumiy qiymati 577,1 mlrd. so'm bo'lgan 323 ta yangi loyiha, shuningdek, qiymati 217,95 mlrd. so'm bo'lgan 434 ta amaldagi loyiha moliyalashtirildi. Xalqaro qo'shma dasturlar doirasida 112,4 mlrd. so'mlik 66 ta tadqiqot qo'llab-quvvatlandi.

Ilmiy kadrlar tayyorlash tizimi ham bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Xususan, 2026-yil uchun stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktorantura uchun 5300 ta kvota ajratilgan bo'lib, ularning 4174 tasi PhD, 726 tasi esa DSc uchun mo'ljallangan. E'tiborlisi, mazkur kvotalarning 63,9 foizi iqtisodiyot va texnologiyalar rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan.

Yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2025-yilda 145 nafar tadqiqotchi 12 ta davlatga, xususan, AQSH, Germaniya, Xitoy, Yaponiya va Koreya Respublikasiga stajirovka o'tash uchun yuborildi. Shu bilan bir qatorda, o'tgan yili 69 mlrd. so'mlik 121 ta startap-loyiha moliyalashtirildi, ular asosida 106 ta korxonalar ochildi. Natijada 847 ta ish o'ri yaratildi va 2,1 mln. AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb etildi. Bu esa mamlakatimizda startap madaniyati va innovatsion tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda innovatsion g'oyalari va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2025-yilda ilmiy ishlanmalarni

tijoratlashtirish

hisobiga bozorga 51,83 mlrd. so'mlik innovatsion mahsulotlar va xizmatlar chiqarildi, bu esa Davlat byudjetiga 6,2 mlrd. so'm miqdorida soliq tushumlarini ta'minladi.

Ayni paytda ilm-fan va innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish uchun zarur huquqiy asoslar shakllantirilmoqda. Jumladan, 2018-yildan buyon mazkur sohada 3 ta qonun, shuningdek, Prezidentimizning 200 dan ortiq farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot jarayonlarini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini takomillashtirish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tashkil etildi. Mazkur chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston 2025-yilgi Global innovatsion indeksda 2016-yildagiga nisbatan o'z pozitsiyasini 43 pog'onaga yaxshilab, Markaziy Osiyoda birinchi o'rinda chiqdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yaqinda bo'lib o'tgan ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy faoliyatni samaradorligini oshirish bo'yicha mutasaddi rahbarlar bilan uchrashuvida milliy ilm-fanning hozirgi holati, muammolari muhokama qilindi, istiqbolidagi vazifalar belgilab olingani sohani mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga qaratilganligi bilan ahamiyatidir.

Avvalo, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida ilm-fan va iqtisodiyot integratsiyasini yanada chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Ayniqsa, bugungi kunda milliy iqtisodiyotning texnologik rivojlanishi ilmiy tadqiqotlarning real sektor ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashni talab qilmoqda.

Xususan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar va tashkilotlar soni 1835 tani tashkil qildi. Bu mamlakatimizda innovatsion faollik bosqichma-bosqich o'rtib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi ilm-fan va xususiy sektor o'rtasidagi kooperatsiyani yanada kengaytirish, tadqiqotlarni birgalikda moliyalashtirish va ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotda qo'llash mexanizmlarini kuchaytirish muhim o'rinda ekanini ko'rsatmoqda.

Shu ma'noda, davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan "Loyiha doirasida ilmiy daraja" hamda "Amaliy doktorantura" dasturlarini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar ilm-fan va iqtisodiyot integratsiyasini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishni ta'minlaydi.

Mazkur yondashuv doirasida

Bu qaror nafaqat moddiy qo'llab-quvvatlash chorasini, balki ilm-fanni intellektual mehnatning yuqori nufuzli va raqobatbardosh sohasiga aylantirishga qaratilgan strategik yondashuv hisoblanadi. Ayniqsa, mamlakatning texnologik mustaqilligi va intellektual xavfsizligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega sohalarda yuqori malakali milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish nuqtayi nazaridan ushbu mexanizm uzoq muddatli ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda "Scopus" va "Web of Science" bazalaridagi milliy nashrlar soni sezilarli darajada ortgan mamlakatimiz ilm-fanining xalqaro ilmiy makondagi faolligini ko'rsatadi. Biroq global ilm-fan rivojining zamonaviy tendensiyalari ilmiy faoliyatni baholashda faqat miqdoriy ko'rsatkichlar emas, balki tadqiqotning ilmiy yangiligi, metodologik ishonchligi, amaliy ahamiyati va jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissasiga ustuvor ahamiyat qaratishni talab etmoqda.

Aytish joizki, Prezidentimiz tomonidan akademik halollikni

hamda ilmiy faoliyatni baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan tashabbuslar ham ilmiy hamjamiyat tomonidan ijobiy baholangan.

Ayniqsa, dissertatsiya himoyasi jarayonida amal qilayotgan tartib-taomillarning qariyb 50 foizini raqamlashtirish bo'yicha ilgari surilgan taklif ilmiy attestatsiya tizimini modernizatsiya qilishning muhim bosqichi hisoblanadi.

Mazkur yondashuv ortiqcha qo'g'ozbozlik va takrorlanuvchi jarayonlarni qisqartirish, inson omili ta'sirini kamaytirish hamda ilmiy faoliyatni baholashda shaffoflik va tezkorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, ushbu islohotlar ilmiy jarayonda formal hujjat aylanmasidan ko'ra tadqiqotning mazmuni, metodologiyasi va ilmiy yangiligi uzoq muddatli ahamiyatga ega.

Ushbu masalada xorijda faoliyat yuritayotgan tajribali vatandosh olimlar bilan hamkorlikni kengaytirish muhim o'rinda tutadi. Global ilm-fan sharoitida intellektual kapital davlat chegaralari bilan cheklanmaydi. Xorijda faoliyat yuritayotgan o'zbekistonlik olimlarning ilmiy salohiyati, tajribasi va xalqaro akademik aloqalarini milliy ilm-fan rivojiga yo'naltirish strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy metodologiyalar, ilmiy tadqiqot madaniyati va xalqaro akademik standartlarni milliy muhitga transfer qilish nuqtayi nazaridan mazkur tashabbus ayni muddaodir.

Bugungi global raqobat sharoitida davlatlar qdratli tabiiy resurslar hajmi bilan emas, balki inson kapitali, ilmiy salohiyat va yangi bilimlar yaratish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Ilm-fanga kiritilayotgan investitsiyalar O'zbekistonning texnologik suvereniteti, iqtisodiy mustaqilligi va milliy xavfsizligiga qaratilgan eng muhim strategik sarmoyadir. Prezidentimiz tashabbusi asosida ilm-fan va ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar darajasida takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni sifatini oshirish hamda sohada raqamli va shaffof boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo'yicha uddalanayotgan ishlar mamlakat ilm-fani rivojida yangi davrni boshlab berishi shubhasiz.

“So'nggi yillarda “Scopus” va “Web of Science” bazalaridagi milliy nashrlar soni sezilarli darajada ortgan mamlakatimiz ilm-fanining xalqaro ilmiy makondagi faolligini ko'rsatadi. Biroq global ilm-fan rivojining zamonaviy tendensiyalari ilmiy faoliyatni baholashda faqat miqdoriy ko'rsatkichlar emas, balki tadqiqotning ilmiy yangiligi, metodologik ishonchligi, amaliy ahamiyati va jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissasiga ustuvor ahamiyat qaratishni talab etmoqda.”

doktorlik tadqiqotlari real sektor ehtiyojlari asosida shakllantiriladi va ularning natijalarini amaliyotga joriy etishga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Bu esa ilm-fanni faqat nazariy bilimlar generatori emas, balki iqtisodiy taraqqiyot, innovatsiya va texnologiy rivojlanishining bevosita drayveriga aylantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt, qayta tiklanuvchi energiya, oziq-ovqat xavfsizligi, tibbiyot, suv resurslari, yangi materiallar va seysmologiya kabi strategik sohalarda bo'yicha yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashni qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish taklif qilindi.

Ushbu ustuvor yo'nalishlardagi doktorantlar stipendiya soni 1,7 barobarga ko'tarish bo'yicha bildirilgan taklif ilm-fanning ijtimoiy maqomini oshirish va yoshlarni tadqiqot faoliyatiga keng jalb qilish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

mustahkamlash, ilmiy tadqiqotlar sifati ustidan ta'sirchan monitoring mexanizmlarini joriy etish hamda ilmiy faoliyatni baholashning zamonaviy yondashuvlarini takomillashtirish bo'yicha bildirilgan takliflar sohada sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab beradi.

Shu bois ilm-fan sohasida "ko'proq chop etish" tamoyilidan "sifati va yuqori ta'sirga ega tadqiqotlar yaratish" konsepsiyasiga bosqichma-bosqich o'tish, akademik yozuv madaniyatini rivojlantirish, milliy ilmiy tahrir va retsenziya institutlarini kuchaytirish hamda ilmiy etikaning ta'sirchan mexanizmlarini takomillashtirish kelgusida mamlakat ilm-fanining xalqaro raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, bu borada ilmiy rahbarlar mas'uliyati va ularni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, ilmiy daraja berish jarayonlarini raqamlashtirish, byurokratik tartib-taomillarni qisqartirish

Abdulaziz RASULEVI, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor.

MKBANK

«Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki aksiyadorlari DIQQATIGA! HURMATLI AKSIYADORLAR!

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi 2026-yil 29-iyun kuni, soat 15:00 dan boshlab, bevosita Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 4-uy manzilida joylashgan “Mikrokreditbank” ATB majlislar zalida va “E-Vote” elektron ovoz berish platformasida (https://evote.uz) masofadan turib ishtirok etish orqali o'tkazilishini ma'lum qiladi.

- Yig'ilish kun tartibi:
1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash;
 2. Bankning 2025-yil yakunlari bo'yicha aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash;
 3. Bankning 2025-yil faoliyatini yakunlari bo'yicha Kuzatuv kengashining hisobotini tasdiqlash;
 4. Bank boshqaruvining 2025-yil yakunlari bo'yicha va Bankni rivojlantirish strategiyasi to'g'risidagi hisobotini hamda bankning 2026-yildagi ustuvor vazifalarini tasdiqlash;
 5. Bank faoliyatining 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotini, jumladan, buxgalteriya balansini, foyda va zararlari to'g'risidagi hisobotini hamda auditorlik tashkilotining xulosasini tasdiqlash;
 6. 2025-yil yakunlari bo'yicha sof foydani taqsimlash va imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash;
 7. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankini rivojlantirishning 2026 — 2028-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash;
 8. Bankda 2025-yil yakuni bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini va "Davlat ishtirokchidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv Qoidalari" tavsiyalariga rioya etilishini baholash natijalarini tasdiqlash;
 9. Bank boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari faoliyatining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarining (KPI) yillik natijalarini ko'rib chiqish;
 10. Bank Ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;
 11. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining "Kuzatuv kengashi to'g'risida" va "Boshqaruv to'g'risida"gi Nizomlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish;
 12. Bankning kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida (joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq) affilangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni kelgusida bank tomonidan mustaqil amalga oshirishi uchun aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan (kutilyotgan) bitimlarni aniqlash va ma'qullash.
- "Mikrokreditbank" ATB Kuzatuv kengashining 2026-yil 2-iyundagi majlisi qaroriga asosan, aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reyestri 2026-yil 23-iyun kuni holatiga hamda aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar qilish uchun aksiyadorlar reyestri 2026-yil 2-iyun kuni holatiga tuziladi.
- Aksiyadorlarni ro'yxatga olish 2026-yil 29-iyun kuni soat 14:00 dan 15:00 gacha davom etadi.
- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida shaxsini tasdiqlovchi hujjat va yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida qatnashadi, yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma qonunchilikda belgilangan tartibda, jismoniy shaxs nomidan berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.
- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish "E-Vote" elektron ovoz berish platformasida (https://evote.uz) "Xo'jalik jamiyatlar boshqaruv organlarining yig'ilishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi to'g'risida" Nizom (ro'yxat raqami 3613, 2025-yil 24-mart) va "Qimmatli qog'ozlar Markaziy depositorysi tomonidan "E-Vote" elektron ovoz berish xizmatidan foydalanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish Qoidalari"ga muvofiq amalga oshiriladi. Jumladan:
- ishtirokchi yig'ilish boshlangunga qadar platformadagi avtorizatsiya va identifikatsiyadan o'tishni ta'minlovchi elektron kanallar orqali ro'yxatdan o'tishi, jumladan, platformaga kirish uchun jismoniy va yuridik shaxslarni identifikatsiyalashning yagona tizimida o'ziga oid ma'lumotlarni taqdim etgan holda identifikatsiyadan o'tishi kerak;
- masofadan turib yig'ilishda ishtirok etish va ovoz tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berishda elektron raqamli imzodan foydalaniladi;
- aksiyadorning vakili yuqorida keltirilgan tartibda tasdiqlangan ishonchnomani taqdim etadi;
- platformadan foydalanishni ta'minlovchi texnik xodim: Kuzatuv kengashi kotibiyati bosh kotibi Turdibekov Zafar Shokul o'g'li, telefon: (71) 207-46-51 (ichki raqam: 1218).
- Yig'ilish o'tkazilish bo'yicha qo'shimcha axborot va unda ko'riladigan masalalarning materiallari bilan yuqoridagi manzilga va quyidagi telefon raqamlariga murojaat qilish hamda bankning korporativ veb-sayti (https://mkbank.uz) va "E-Vote" elektron ovoz berish platformasi (https://evote.uz) orqali tanishish mumkin.

Telefon: (71) 207-46-51 (ichki raqam: 1218, 1304)

Bank Kuzatuv kengashi.

“O'z sanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishini masofadan o'tkazish to'g'risida KABARNOMA

Hurmatli "O'zbekiston sanoat qurilish banki" aksiyadorlik-tijorat banki aksiyadorlari!

"O'z sanoatqurilishbank" ATB (Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 3-uy manzili bo'yicha joylashgan, korporativ veb-sayti: www.sqb.uz, e-mail: info@sqb.uz), Sizga **2026-yil 30-iyun** kuni Toshkent shahri vaqti bilan soat 11.00 da **masofadan turib elektron ovoz berish xizmatini** <http://evote.uz/> orqali bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi belgilanganligini ma'lum qiladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. Bank Kengashi va Boshqaruvining 2025-yil yakunlari bo'yicha faoliyatini hamda bankni rivojlantirish strategiyasining bajarilishi bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini eshitish;
2. Bank faoliyatining 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash;
3. Bank foydasini taqsimlash va Kengashning har bir a'zosiغا 2026-2027 korporativ yil uchun to'lanadigan mukofot va kompensatsiyaning eng yuqori miqdorini belgilash;
4. 2026-2027 korporativ yil uchun Bank Boshqaruv a'zolariga to'lanadigan mukofotning maksimal miqdorini belgilash;
5. Bank boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolarining vakolatlarini 1 (bir) yilga tasdiqlash to'g'risida;
6. 2026 moliya yili bo'yicha bankda tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun tashqi auditor tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini belgilash;
7. "O'zbekiston sanoat qurilish banki" aksiyadorlik-tijorat banki ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni tasdiqlash;
8. Bankda korporativ boshqaruv tizimi bo'yicha 2025-yil yakunlariga ko'ra o'tkazilgan xalqaro (OOO "PRICEWATERHOUSE COOPERS") mustaqil baholash natijalarini ko'rib chiqish;
9. "O'z sanoatqurilishbank" ATB Bank guruhini korporativ boshqarish konsepsiyasini tasdiqlash;
10. Balansdan tashqari hisob raqamlardagi aktivlarni undirish bo'yicha 2025-yil hisoboti.

Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reyestri tuziladigan sana: 2026-yil 24-iyun.

Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishida oid hujjatlar bilan bankning "www.sqb.uz" korporativ veb-sayti orqali tanishish yoki "info@sqb.uz" elektron manzili orqali so'rov yuborishingiz mumkin.

Yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmatidan (<http://evote.uz/>) foydalangan holda 2026-yil 30-iyun kuni Toshkent vaqti bilan soat 10:00 da boshlanib, 11:00 da o'txtatiladi.

Murojaat uchun telefonlar: (78) 120-45-00 IP: 85-55; (99894) 711-13-75.

“GARANT BANK” AKSIYADORLIK JAMIYATI YIL YAKUNLARI BO'YICHA AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHI O'TKAZILISHINI MA'LUM QILADI

Kun tartibi:

1. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash;
2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash;
3. Bank Kuzatuv kengashining 2025-yil faoliyatini yakunlari bo'yicha hisobotini tasdiqlash;
4. Bank boshqaruv raisining bankning 2025-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyatini natijalari bo'yicha hisobotini tasdiqlash;
5. Bankning 2025-yilgi faoliyati bo'yicha tashqi auditorning xulosasini eshitish, yillik hisoboti, buxgalteriya balansini hamda foyda va zararlari to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash va bankning 2025-yildagi taqsimlanmagan foydasini taqsimlash;
6. Kuzatuv kengashining ayrim a'zolari vakolatini muddatidan oldin tugatishi va Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash;
7. Bank tashqi auditorini tasdiqlash va unga xizmat haqining eng yuqori miqdorini belgilash to'g'risida;
8. Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash (yangi tahrirda);
9. Bankning ichki qoidalarini qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish to'g'risida.

Yig'ilish 2026-yil 29-iyun kuni soat 12.00 da Toshkent shahri, Said Baraka ko'chasi, 78-uyda o'tkaziladi.

Umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxati 2026-yil 23-iyun holatiga tuziladi.

Yig'ilish ishtirokchilari 2026-yil 29-iyun kuni soat 11.00 dan 11.45 gacha ro'yxatga olinadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishga doir materiallar bilan Toshkent shahri, Said Baraka ko'chasi, 78-uyda joylashgan "Garant bank" AJNING bosh ofisida tanishishlari mumkin. Elektron pochta manzili: info.garantbank@uz, veb sayti: www.garantbank.uz.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida shaxsini tasdiqlovchi hujjat va yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida qatnashadi, yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, jismoniy shaxs nomidan berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Ma'lumot uchun telefon: (71) 203-02-42.

KUZATUV KENGASHI.

Chet tili fani mavjud bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirishda xorijiy til bo'yicha "B1" sertifikatini uchun 75 foiz ball beriladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 25 499 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilmaydi va mulg'iga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilishi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahilandani.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbachi muharrir N. Ostovon. Musahhib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonalar manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 03.35 Topshirildi – 04.00 1 2 3 4 5 6